KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI.

Sultonova Oydina Ibroyimovna.
Buxoro davlat texnika universiteti M 18-25 OOX magistranti.
E-mail: oydinaibroyimovna@gmail.com

Annotatsiya: Har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tartibga soluvchi asosiy qonuni konstitutsiya bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson huquqlarining kafolatlanishi va davlat boshqaruvining aniq tizimda ishlashini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, mustaqillik g‘oyalari va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim hujjat. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ilg`or islohotlarning barqarorligi ham aynan Konstitutsiyamizda belgilab berilgan tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek Konstitutsiyamizni erkin va farovon hayotning asosiy garovi sifatida e’tirof etishimiz o`rinli.

**Kalit so`zlar:** Qonun, g`oya, milliy manfaatlar, hokimiyat tarmoqlari, majburiyat, inson huquqlari,siyosiy huquqiy asos,tamoyillar, hokimiyat tarmoqlari, so‘z va fikr erkinligi, yashash huquqi, vijdon erkinligi.

Аннотация: Конституция является основным законом, регулирующим политическую, социальную и экономическую жизнь каждого государства; она обеспечивает устойчивое развитие общества, гарантию прав человека и функционирование государственного управления в чёткой системе. Конституция Республики Узбекистан-важный документ, в котором воплощены вечные стремления нашего народа, идеи независимости и национальные ценности. В настоящее время устойчивость проводимых в нашей стране передовых реформ осуществляется именно на основе принципов, закреплённых в нашей Конституции. Также уместно признать нашу Конституцию основной гарантией свободной и благополучной жизни.

Ключевые слова: Закон, идея, национальные интересы, ветви власти, обязанность (обязательство), права человека, политико-правовая основа, принципы, свобода слова и мысли, право на жизнь, свобода совести.

Abstract: The Constitution is the fundamental law that regulates the political, social and economic life of every state; it ensures the stable development of society, the guarantee of human rights, and the functioning of state governance within a clear system. The Constitution of the Republic of Uzbekistan is an important document embodying our people's eternal aspirations, the ideas of independence, and national values. Today, the stability of the progressive reforms being carried out in our country is implemented precisely on the basis of the principles enshrined in our Constitution. It is also appropriate to recognize our Constitution as the main guarantor of a free and prosperous life.

ISSN 3030-3907

Keywords: Law, idea (concept), national interests, branches of government, obligation (duty), human rights, political and legal basis, principles, freedom of speech and thought, right to life, freedom of conscience.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — mamlakatning huquqiy asoslarini belgilovchi eng muhim hujjat bo‘lib, u demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat tuzishga yo‘l ochadi. Konstitutsiya, mamlakatning barcha fuqarolariga teng huquqlar va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning huquqiy himoyasini ta’minlaydi, shuningdek, demokratik va erkin jamiyatni rivojlantirishning asosiy yuridik hujjati hisoblanadi. Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni va bosh qomusimiz bo‘lib, unda xalqimizning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi va insonlarning farovon hayot kechirishi uchun muhim tamoyillar belgilab qo‘yilgan. Har bir demokratik davlatda Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat darajasiga ko‘taradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, mustaqillik g‘oyalari va milliy manfaatlarini o‘zida mujassam etgan asosiy hujjat sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda, Konstitutsiya-davlat tuzilishi, boshqaruv shakli, hokimiyat tarmoqlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi poydevor hujjatdir. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydigan eng oliy hujjat sifatida jamiyat barqarorligini ham ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, mamlakatimizning siyosiy-huquqiy asosini yaratdi. Unda "Inson jamiyat davlat" tamoyili asosiy o‘ringa qo‘yilgan. Bu tamoyil davlat siyosatining markazida inson manfaatlari turishini bildiradi. Shuningdek, Konstitutsiya hokimiyatning bo‘linishi qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining mustaqilligi tamoyilini belgilab, adolatli boshqaruvni ta’minlashga xizmat qiladi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi Konstitutsiyaning eng muhim bo‘limlaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklariga bag‘ishlangan bo‘limdir. Unda quyidagilar belgilab qo`yilgan:

- yashash huquqi;
- so‘z va fikr erkinligi;
- vijdon erkinligi;
- ta’lim olish huquqi;
- mehnat qilish huquqi;
- sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanish huquqi;

Shuningdek, ayollar, bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar huquqlarining davlat tomonidan alohida himoya qilinishi ham belgilangan. Bu barcha qatlamlar uchun tenglik va adolat tamoyillarining amalda ta’minlanishiga

ISSN 3030-3907

xizmat qiladi. Konstitutsiya farovon hayot garovi hamdir. Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolatidir. Unda iqtisodiy barqarorlik, mulk shakllari tengligi, tadbirkorlik erkinligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa iqtisodiy rivojlanish, farovon hayot va mustahkam ijtimoiy himoya tizimi uchun asos bo‘ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta’lim va tibbiyot tizimlarini modernizatsiya qilish bularning barchasi Konstitutsiyada belgilab qo`yilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Konstitutsiya va Yangi O‘zbekiston: So‘nggi yillarda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Unda inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, fuqarolarning huquqiy himoyasi, ta’lim sifati, mahallalar institutining roli yanada mustahkamlandi.

2023 yil 30 apreldagi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada (6 bo`lim,27 bob, 155 modda):

- inson manfaatlari ustuvorligi,
- xalq davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish,
- sud-huquq tizimini mustahkamlash,
- yoshlar va oilalarga qo‘shimcha kafolatlar berish
- atrof muhit muhofazasi kabi yangiliklar o‘z aksini topdi.

Bu o‘zgarishlar mamlakatimizda istiqomat qilayotgan insonlarning kelib chiqishi, millati, tili, dinidan qat`iy nazar farovon, adolatli, ochiq va demokratik hayotning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda va O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mustahkamlab qo`yilgan.



ISSN 3030-3907

XULOSA VA TAKLIFLAR: Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya har bir davlatning mustahkam poydevori, taraqqiyotning bosh yo‘l xaritasidir. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning erkin, farovon va osoyishta hayot kechirishi uchun barcha huquqiy kafolatlarni yaratadi. Ushbu hujjat nafaqat davlat boshqaruvi tizimini belgilaydi, balki har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta’minlaydi. Konstitutsiyaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, unda belgilangan me’yorlarga amal qilish esa har bir fuqaroning burchidir. Konstitutsiya erkin va farovon hayotning eng asosiy garovi bo‘lib, kelajak avlodlarga mustahkam huquqiy poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasi» nomli asari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurttaraqiyoti va xalq farovonligini garovi» nomli asari.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va normativ hujjatlari to`plami-T.,2020.
5. Rasulov, Z. (2011). Demokratik islohotlar va Konstitutsiya: o‘zbek modeli. Toshkent: O‘zbekiston Oliy Majlisi nashriyoti.

ISSN 3030-3907